

BIZNESNI YURITISHDA FOYDANI TAQSIMLASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11398356>

Anorboyev Furqat

Bank moliya akademiyasi magistranti

Biznesni yuritish jarayonida korxonaning ishlab chiqarish sarflari, mexnat va moddiy resurslar iste'mol xajmlari, texnika darajasi, ishlab chiqarishni tashkil qilish va boshqa omillar asosida yoki ko'payishi yoki kamayishi mumkin. Korxonada, firma faoliyatining natijasi maxsulot sotilgandan so'ng xosil bo'lgan tushim va maxsulotni ishlab chiqarish va sotishga sarflangan xarajatlar ayirmasiga teng.

Bu yerda yalpi daromad va yalpi foyda tushunchalarni farq qilish lozim.

Yalpi daromad – korxonada yoki firmaning ishlab chiqarish va tijorat faoliyatini yakunlovchi ko'rsatkich bo'lib, yalpi tushim va maxsulotni ishlab chiqarish va sotilishiga ketgan sarf xarajatlar ayirmasiga teng.

Yalpi tushim – bu tovar maxsulot, ishlar, xizmat va moddiy ne'ematlarni xaqiqiy sotilgan narxlari bo'yicha realizatsiyasidan kelib tushgan mablag'larning to'la yig'indisi.

Yalpi foyda – yalpi daromadning qismi bo'lib, korxonada maxsulot, asosiy fondlar va boshqa mulqini sotish natijasida xosil bo'lgan va ushbu jarayonlar sarf xarajatlar miqdoriga kamaygan mablag'.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya Vazirligi qoidasiga binoan quyidagi foyda ko'rsatkichlari qo'llaniladi:

Maxsulot sotishdan tushgan yalpi foyda: $F_{ya} = S_m - T/N$

S_m – sotilgan maxsulot.

T/N – maxsulotning ishlab chiqargan sarflari.

Asosiy faoliyatning foydasi: $F_a = F_{ya} - D_{xar} \pm$ boshqa daromad zarar.

Bunda: D_{xar} – davr xarajatlari.

Umumxo'jalik faoliyatning foydasi: $F_{ux} = F_a + D_d \pm D_{val(3)} \pm Q_q - S(\%)$

Bunda: D_d – dividend va %-lar bo'yicha daromadlari, D_{val} – chet el valyutalari bilan operatsiyalar daromadi (zarar), Q_q – qimmat baxoqog'ozlarga investitsiyalarni qayta baxolash. $S(\%)$ – foiz bo'yicha sarflar.

Soliqni to'laguncha qadar xosil bo'lgan foyda: $F_s = F_{ux} \pm F_{f(3)}$

$F_{f(z)}$ – favqulotdagi daromad yoki zararlar saldosini.

Korxonani o'zida qoladigan sof foyda: $SF = F_s - \text{Soliq}(fd) - \text{boshqa soliq va to'lovlar}$

Foydani optimal taqsimlash hamda ishlab chiqarish hajmlarini aniqlash va daromadni maksimal darajasini aniqlash zarur hisoblanadi. Korxonada xo'jalik faoliyatining yakunlovchi moliyaviy ko'rsatkichi bo'lib balansidagi foyda xizmat qiladi.

Balans foydasi uch elementdan tashkil topadi:

maxsulotni sotish, ishlarni bajarish, xizmat ko'rsatishdan kelgan foyda;

asosiy fondlar yoki boshqa tur mulqni realizatsiyasidan tushgan foyda (zarar);

realizatsiyasidan tashkari operatsiyalarning moliyaviy natijalari.

Foyda turli, rang-barang ehtiyojlarni qondirar ekan, bozor iqtisodiyoti sharoitida, uni iqtisodiy asoslangan tizimni ishlab chiqish va joriy etish katta ahamiyatga ega. Bu tizimda xo'jalik subyektlarning manfaatlari oqilona, bir-biriga muvofiq kelishilgan bo'lishi lozim.

Foyda taqsimlashning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

jamiyat oldidagi moliyaviy majburiyatlarni birinchi galda bajarish;

kengaytirilgan ishlab chiqarish ehtiyojlarini maksimal darajada ta'minlash;

ishlovchi xodimlarni moddiy rag'batlantirish;

foydani ijtimoiy-madaniy maqsadlarga ishlatish.

Bozor sharoitida korxonalar yuqoridagi prinsiplarni amalga oshirish yo'llarini o'zi belgilaydi, foydani qaerga, qancha va qancha muddatda sarflashni o'zi xal qiladi, korxonalar faoliyatidagi davlat nazorati soliqlar orqali amalga oshiriladi.

Soliq va to'lovlardan so'ng qolgan foyda ishlab chiqarish iste'mol xamda ijtimoiy ehtiyoj va maqsadlarga taqsimlanadi. Bundan tashkari, agar korxonalar ustav fondi boshqa investorlar ishtirokida tashkil topgan bo'lsa, u xolda shu foydadan ularga foiz (%) va dividendlar to'lanadi.

Korxonalar ixtiyorida qolgan foydani taqsimlash tizimida bugungi kunda asosiy talab – bu iste'mol va jamg'arish uchun ajratilgan mablag'lar orasida optimal nisbatlar belgilash asosida kengaytirilgan qayta ishlab chiqarishni moliya resurslari bilan ta'minlashdir. Bozor konyukturasi talabiga binoan korxonalar ishlab chiqarish potensialini kengaytirish va yangilash zaruriyati tug'ilsa, foydadan ishlab chiqarishni rivojlantirish fondlarga ajratmalar miqdorini belgilash muxim o'rin tutadi. Bu fondlar resurslari kapital quyilmalarni moliyalashtirish, aylanma mablag'larni ko'paytirish, ilmiy-tekshirish ishlarni o'tkazish, yangi texnologiyalarni joriy etish, ilg'or mexnat usullariga o'tish va xokazolarga mo'ljallangandir.

Foyda taqsimlanish tizimida rag'batlantirish fondlarni tashkil qilish xam katta ahamiyatga ega. Ushbu fondlar resurslari ishchi va xizmatchilarni mukofolash, yil yakunlari bo'yicha taqbiqlash, bir vaqtli moddiy yordam ko'rsatish va xokazolarga ishlatiladi. Bozor sharoitiga o'tish munosabati bilan xodimlarni ijtimoiy muxofaza etish tizimining ahamiyati ortib boradi.

Bundan tashqari, rentabellik ko'rsatkichi ham korxonaga faoliyatining umumiy samaradorlik darajasini ifodalab, olingan natijani sarflar yoki iste'mol qilingan resurslar bilan solishtiradi.

Amalda korxonaga faoliyatida quyidagi rentabellik ko'rsatkichlar qo'llaniladi:

1. Maxsulot rentabelligi: $R_m = (F_{ya}/T/n) * 100\%$ - sof foydani maxsulot tannarxiga bo'lgan nisbati.

2. Ishlab chiqarish rentabelligi:

$$R_{i/chF} = (F_b / (A_f + O_{ch.m.})) * 100\%, \text{ yoki } R_{i/chF} = (F_s / (A_f + O_{ch.m.})) * 100\%$$

F_b – balans bo'yicha foyda miqdori;

F_s – sof foyda;

A_f - asosiy ishlab chiqarish fondlar o'rtacha-yillik qiymati;

$O_{ch.m.}$ – cheklangan aylanma mablag'lar qiymati.

3. Korxonaga jami aktivlarining rentabelligi: $R_A = (F_s/A)$

F_s – sof foyda;

A – aktivlarning o'rtacha-yillik qiymati.

Aktivlar rentabelligi aktivlarning 1 so'mi qancha sof foydani kelib tushganini ko'rsatadi.

4. Maxsulot realizatsiyasining rentabelligi: $R_r = (F_{rya}/M_r)$, yoki (F_s/M_r)

Bu ko'rsatkich realizatsiya qilingan maxsulot xajmida sof foyda ulushini belgilaydi yoki sotilgan maxsulot xajmida aks ettirilgan sarf xarajatlar ulushini ko'rsatadi.

5. Bir aksiyaning rentabelligi: $F/A = (F_s/n_a)$

n_a – muomalaga chiqarilgan aksiyalar soni.

Bir aksiyaning rentabelligi muomaladagi bitta aksiyaga to'g'ri kelgan sof foyda miqdorini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14 sentyabr 2023 yildagi № 306 – sonli Qarori “Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida”.

2. Kobulov K., Boymurodova L. ABOUT SOME FEATURES OF THE INVESTMENT CYCLE IN MODERN CONDITIONS //EPRA International Journal of Economics, Business and Management Studies (EBMS). – 2023. – T. 10. – №. 12. – C. 37-41.

3. Jumaniyazov Inomjon Turaevich, & Juraev Maqsud Annaqulovich (2022). Korxonalarda moliyaviy qarorlar qabul qilish va risklarni baholash usullari. Science and Education, 3 (5), 1646-1654.

4. Shavkat Bayramovich Babaev, Aybek Nazarbaevich Abdullaev, Mirza Qilichbayevich Sabirov, Inomjon To‘raevich Jumaniyazov, & Inomjon To‘raevich Jumaniyazov. (2024). CONCEPTUAL REFLECTION OF THE CHANGING ROLE OF THE STATE EXPORT POLICY IN THE DEVELOPMENT STRATEGY OF THE NEW UZBEKISTAN. European Scholar Journal, 5(3), 5-8.

5. Jumaniyazov Inomjon To‘raevich, Abdullaev Aybek Nazarbaevich, Sabirov Mirza Qilichbayevich, & Shavkat Bayramovich Babaev. (2024). Importance of social principles of sovereign wealth funds. Global Scientific Review, 26, 46–54.

6. Jumaniyazov Inomjon To‘rayevich. (2024). ESG IN SOVEREIGN WEALTH FUND INVESTMENTS. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 41(2), 117–124.

7. napp.uz

8. stat.uz